

PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2022



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

Maxsus son

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2022

MUNDARIJA

Baxtiyor ADIZOV. Oliy ta'lif muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	7
Ширинбай ОЛИМОВ, Юлдуз САИДОВА. Талабалар маънавиятни ривожлантиришнинг йўналишлари	10
Bolta XODJAYEV. Shaxs ijtimoiylashuvida fuqarolik madaniyati muhim pedagogik omil sifatida	16
Нодира МУСАЕВА, Нафиса МУСАЕВА. Разработка теоретических основ технологии неразрывности обучения основанной на педагогической таксономии	20
Baxshillo UMAROV. Yoshlarda yangicha dunyoqarashni shakllantirishda sharq allomalari merosidan foydalanish imkoniyatlari	24
Кобилжон АБДУЛЛАЕВ. Приоритетные направления государственной образовательной политики в сфере дошкольного образования	28
Shabon FARMONOVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari	31
Гулия ХАБИБОВА. Функция махаллы в современном обществе Узбекистана	36
O'lmas QURBONOVA. Pedagogik fikrlar taraqqiyotining ayrim masalalari	39
Manzura OCHILOVA. O'quvchilarning ma'naviy barkamol shaxs bo'lib shakllanishida al- Buxoriy ta'limotining o'rni	42
Bobomurod JURAYEV. Abushakur Balxiyning "Ofarinnoma" asarida ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari	45
Gulchehra IZBULLAYEVA. Didaktik asarlarda do'stlik munosabati va uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni	49
Nargiza BAXRIYEVA. Maktabgacha yoshdag'i bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlananlik dinamikasi	54
Dildora TOSHEVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekologik tarbiyalashda tabiiy fanining o'mi va ahamiyati	59
Olimjon AHMADOV. Taraqqiy parvarvarlarning Buxoroda ta'lif-tarbiya tizimini isloh qilishga qaratilgan g'oya va qarashlari	63
Oybek ORTIQOV. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida tabalalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	66
Matluba XOJIYEVA. Abu Rayhon Beruniynig axloqiy qarashlari	70
Nigina ISMATOVA. Yoshlarni oilada ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish usul va vositalari	76
Lola ELIBOYEVA. Bo'lajak o'qituvchilarini ijodiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik asoslari	80
Feruza RAMAZONOVA. Bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlashda kasbiy e'tiqod tuyg'usini shakllantirish imkoniyatlari	86
Ma'rifikat UMUROVA. Bo'lajak o'qituvchilar ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda milliy merosning o'rni	89
Nilufar RAXIMOVA. Tasavvuf ta'limotining tarbiyaviy ahamiyati	93
Mirjon AMONOV. O'quvchilarda fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishning omillari va mezonlari	96

Nargiza BAXRIYEVA

Buxoro davlat universitetining
Pedagogika instituti o'qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANGANLIK DINAMIKASI

Bolalarini axloqiy-ma'naviy tarbiyalashni aynan ularni ijtimoiy-hissiy rivojlanadirishdan boshlash zarur. Maqolada 6-7 yoshli bolalarning ijtimoylashuvi jarayoni dinamikasi tadqiqot predmeti sifatida o'rganilgan va erishilgan natijalar tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoylashuv, ijtimoiy nazarat, shaxsiy sifatlar, ontogenet, muloqot, subyekt, qadriyatlar, stereotiplar, emotsional rivojlanish.

Нравственное и духовное воспитание детей должно начинаться с их социально-эмоционального развития. В статье представлена динамика и анализ процесса полученных результатов социализации детей 6-7 лет как предмета исследования.

Ключевые слова: Социализация, социальный контроль, личностные качества, онтогенез, общение, субъект, ценности, стереотипы, эмоциональное развитие.

Moral and spiritual upbringing of children should begin with their socio-emotional development. The article presents the dynamics of the process of socialization of children aged 6-7 years as a research subject and an analysis of the results obtained.

Keywords: Socialization, social control, personal qualities, ontogeny, communication, subject, values, stereotypes, emotional development.

Kirish. Maktabgacha ta'lif jarayoni hozirgi sharoitda bolalarga ta'lif va tarbiya olishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, inson rivojlanishining muhim davri sifatida bolalikning o'ziga xosligi, rang-barangligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgandir. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoylashuvi masalasi psixologik-pedagogik masala sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Pedagogik psixologiyada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoylashuvi masalasida mavjud nazariy materiallarni nihoyatda ko'pligini ta'kidlash lozim. Ijtimoylashuv borasidagi talqinlarning ko'pligi va turli-tumanligiga qaramasdan, ular orasida ijtimoylashuvni "tashqi omil" yoki "ijtimoiy nazarat" sifatida talqin qilish ustun xarakterga ega. Shunga qaramasdan, hozirgi innovatsion pedagogik sharoitda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoylashuvini jadallashtirish ularning istiqboldagi shaxsiy rivojlanishini ham sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga imkon yaratadi.

Faol ijobjiy muloqot bolalar ijtimoylashuvining muhim sharti bo'lib, ularda shaxs sifatlariga ega bo'lishning asosiyo ko'rsatkichi hisoblanadi. Binobarin, shaxs empirik individiga, uning real hayotiy namoyon etilishiga nisbatan faoliyot subyekti. Demak, faol subyekt bilan amalga oshiriladigan ta'limiylar jarayonda uning ijtimoylashuvi xususiyatlarini bilih va shu asosda pedagogik faoliyatni tashkil etish muhimdir.

Maktabgacha pedagogika va bolalar psixologiyasi masalalari bilan shug'ullanган B.G.Ananev, R.S.Bure, L.S.Vigotskiy, L.N.Galiguzova, S.A.Dudnikova, D.B.Elkonin kabi tadqiqotchilar ishlardira maktabgacha yoshdagi bolalar muloqotining o'ziga xos jihatlari, muloqotning rivojlanish xususiyatlari, ya'ni, faoliyat (o'yin, nutq), predmetli muhit va madaniy qadriyatlar tahlil etilgan.

Muloqotga ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik hozirgi sharoitda maktabgacha yosh davridan boshlab shaxsni tarbiyalashning zaruriy shartlaridan biri sanaladi. Psixologik xususiyatlar va shaxsiy sifatlar bola ontogenezinining ilk davrlaridan shakllana boshlaydi hamda o'z navbatida bolaning keyingi rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Muloqot shaxs sifatida shakllanishning muhim tarkibiy qismi bo'lib, bolaning uni o'rabi turgan atrof-olamga nisbatan zaruriy ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi. Muloqot subyektiaga aylanish shaxs sifatlarining namoyon bo'lishidir, shaxsni ta'kidlovchi, ifodalovchi xususiyatlar esa uning subyektligidan dalolat beradi. Ushbu ijobjiy shaxslararo munosabatlarni tashkil etish mexanizmlarini maktabgacha yosh davridan shakllantirish taqozo etiladi. Shunga binoan, biz tadqiqotimizda aynan 6-7 yoshli bolalarning ijtimoylashuvi jarayonlarini o'rgandik.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lifi rivojlanirish masalalari "Maktabgacha ta'lif muassasalari faoliyati, mustaqil fikrashga o'rgatish muammolari Z.Azizova, X.Kasimova, Sh.Shodmonova, N.Begmatova, N.Bikbaeva, D.Babayeva, M.Umarova, B.Djurayeva, M.Ismoilova, D.Mirzajonova,

M.Nigmatova, M.Rasulova, D.Sobirova, N.Tilyabova, P.Yusupova, F.Qodirova va boshqa olimlarning ishlarida batafsil yoritilgan" [1].

Aynan, ta'limiy-tarbiyaviy jarayonda quyidagi omillar maktabgacha yoshdag'i bolalar ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir etishini nazarda tutish lozim:

- "Zamonaviy ijtimoiy vaziyatga xos bo'lgan stereotiplar va qadriyatlarning o'zgaruvchanlik xususiyati;

- oila va maktabgacha ta'lim muassasasi o'rtaсидаги талаб ва qadriyatлардаги farqlar;

- pozitiv, ijobiy baholashning kamayishi;

- muloqtda kuzatiladigan ayrim kamchiliklar natijasida hissiy taranglikning kelib chiqishi;

- zamonaviy media makonning maktabgacha yoshdag'i bolalar muloqoti, emotSIONalligi va xulqatvori shakllanishiga o'ziga xos ta'siri" [2]. Bolalarning emotSIONal rivojlanishini ularning atrofdagilar bilan samarali muloqoti va turli rivojlantiruvchi usullar orqali optimallashtirish muhimdir.

M.V.Krulext, A.A.Lyublinskaya, V.S.Muxina va R.S.Nemovlar tomonidan maktabgacha yosh davri ijtimoiylashuvning, psixik hamda shaxs sifatida rivojlanishning muhim davri sifatida ta'kidlangan. B.G.Ananevning shaxsnii faoliyat, bilish va muloqot ob'ekti sifatida shakllantirish nazariyasiga asoslanib aytish joizki, maktabgacha yoshdag'i bolalarning muloqot subyekti sifatida o'zida kognitiv va hissiy jihatlarni namoyon etishi darajasi ularning ijtimoiylashuviga ijobiy ta'sir etadi.

Muloqot jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlaydigan kommunikativ qobiliyatlar bola shaxsini umumiy rivojlantirish orqali uni ijtimoiy-hissiy rivojlantirishga shart-sharoit yaratadi.

"Maktabgacha yosh davrining yakunida bola o'zini va u hozirgi vaqtida hayotda egallagan holatini anglashga qobiliyatli bo'ladi. O'zining ijtimoiy "Men"ini anglash va buning asosida ichki pozitsiyalarining, ya'ni, atrofga va o'z-o'ziga yaxlit munosabatning yuzaga kelishi tegishli ehtiyojlar va intilishlarni tug'diradi" [3]. Bola uchun emotSIONal muloqotning mazmuni faqatgina ma'lum qoida va me'yorlar bilan belgilanmaydi. Bola o'zining ijtimoiy-hissiy rivojlanishi dinamikasida tajribasi to'planishining alohida holatini boshidan kechiradi.

"Bolaning emotSIONal rivojlanishida imkoniyatlarni samarasiz sarflash "psixologik botib qolish"ga, bolada "emotsional yopiqlik"ka olib keladi. Bu o'sib kelayotgan yosh avlodni emotSIONal rivojlantirish muammosining dolzarb masalalardan biri bo'lib, ushbu muammoni samarali hal qilish yo'llarini izlash esa zamonaviy pedagogik nazariya va amaliyat uchun muhim vazifa hisoblanadi" [4].

Bolaning hayoti va faoliyati davomida emotsiyalar irodaviy jarayonlardan ustun kelib uning salomatligi va shaxs sifatida kamol topishiga asos yaratadi, unda ijtimoiy muhim sifatlar tarbiyalanishini ta'minlaydi. Shunga qaramasdan, "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda bolalarga tabiat, inson, jamiyat haqidagi dastlabki eng oddiy tasavvurlarni hosil qilish lozim" [5]. Shu orqali ularning ijtimoiy tasavvurlari ko'lami kengayib boradi.

Maktabgacha ta'limning "Ilk qadam" davlat dasturi va "Davlat talablari"da butun diqqat-e'tibor bolalarning emotSIONalligini shakllantirishga, ularda estetik hissiyotlarni, emotSIONal-axloqiy hozirjavoblikni, bag'rikenglikni, tengdoshlarining hissiyotlarni tushunish va ularga hamhard bo'lish tuyg'ularini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ushbu vazifalarni hal qilish bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga olib kelishi zarur. Aynan 5-7 yosh - bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish uchun senzitiv davr hisoblanadi.

"Shakllanayotgan ijtimoiy yo'nalish maktabgacha yosh davridagi bolalar uchun xosdir. Ular bolalarning real o'zaro munosabatlarda ham, bildirayotgan fikrlarida ham, tengdoshlari hatti-harakatlarini baholashda ham, bolalar jamoasi barcha a'zolari birligida faoliyatining maqsadga yo'naltirilganligida ham namoyon bo'ladi" [6]. Emotsional rivojlanish darajasi esa bevosita shaxsiy sifatlar shakllanishiga, intellektual va ijtimoiy rivojlanishga turki beradi.

Bolalarni emotSIONal rivojlantirish muammosi keyingi yillarda yangi o'qitish talablari va standartlari kiritilishi bilan yanada dolzarblik kasb etmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari bolalarning ijtimoiylashuviga imkon yaratadigan pedagogik munosabatlarni insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etishga ma'lum darajada adaptatsiyalashishga harakat qilishmoqda.

"Bolalarda maqsadni tasavvur qilish boy emotSIONallik bilan ifodalanishi zarur, chunki, tashqi ta'sir omillariga qaramasdan, ular o'z diqqatini maqsadga yo'naltirishi va ushlab tura olishi muhimdir" [7].

Kattalarning bolalarga nisbatan salbiy munosabati unda tipik reaksiyalarni qo'zg'atadi, ya'ni, bola kattalar bilan muloqot qilishdan o'zini olib qochadi. "Tayyorlov guruhidagi bolalarning hamkorlikdagi faoliyatlarini muvofiqlashtirish ularga harakat usullarini birligida bajarishga imkon beradi. Bolalarning hamkorlikdagi harakatlarini nazorat qilish va munosib baholash, ularning birligida faoliyatlarini modellashtirish, ularni amalga oshirishning yangi shakllari va usullarini izlashga undaydi" [8].

Shunday qilib, katta maktabgacha yoshdagi bolalar turli ifoda vositalari orqali emotsiyal holatlarni aks ettirish usul va vositalari borasida yetarli tasavvurga ega bo'lishlari muhimdir.

Ko'p hollarda bolalarda ijtimoiy malakalarni shakllantirishda maxsus tayyorlangan predmetli muhit ahamiyati yetarli darajada anglanmaydi, bu to'g'ri tashkil etilganda bolalarda mustaqillik, mas'uliyatilik, mustaqil faoliyat yuritish, kommunikativ malakalar va boshqa ijtimoiy malaka hamda ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari kengayadi, albatta.

Hissiy holatlар ahamiyati borasida G.V.Kolshanskiy, - "Emotsiyalar real olam va predmetlarni emas, munosabatlarni ifodalaydi, ya'ni, predmet va hodisalarning xossalarni emas, ularning inson hayotidagi mohiyatini aks ettiradi", deya ta'kidlagan [9]. Shuning uchun ham bolalarda salbiy emotsiyal holatlар – depressiya, nizoga moyillik, xavotirlanish hissi kabilar o'z vaqtida aniqlashni va korreksiyalashni talab qiladi. Ko'pincha bu holatlarning asosiy sababi bolada o'z yaqinlari va tengdoshlari bilan muloqotga ehtiyojlardagi deprivatsiya bo'lib chiqadi.

Yaxlitlik, umumiylik, ko'p yo'nalishlilik, harakatchanlik kabi xususiyatlar bola emotsiyal sohasini o'rganishda ma'lum murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Shu bois, bilish jarayonlarini va bola shaxsi xulq-atvorini tadqiq etishda uni aynan faoliyatda va faoliyat orqali o'rganish tavsiya etiladi.

R.V.Ginoyan to'g'ri ta'kidlaganidek, "Agar idrok bolaga bog'liq bo'Imagan atrof-olamni ob'ektiv aks ettirishga yordam bersa, emotsiyalar bolaning o'ziga va atrof-olamga nisbatan subyektiv munosabatini aks ettiradi" [10].

Aytish joizki, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiylashuv ularda ma'lum darajada emotsiyonallikning ifodalanishi jarayoni sifatiga bog'liq bo'ladi. Zero, ijtimoiylashuv bu avvalambor muloqotni tashkil eta olish, o'zini va boshqalarni tushuna olish jarayonidir. Bu borada mavjud adabiyotlar tahlili ham shunday xulosaga kelishga undaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy rivojlanishning mavjud holati darajasini o'rganish maqsadida amalga oshirilgan tadqiqotimizda bolaning tengdoshlariga nisbatan munosabatlari borasidagi tasavvurlarni o'rganishga yo'naltirilgan V.G.IIurning "Zinapoya" metodikasi, R.Temml, M.Dorki va V.Amenning "Xavotirlanishni o'rganish" testi hamda "Xavotirlanish darajasining namoyon etilishi" metodikasi qo'llanildi.

Tahlili va natijalar. Tashkil etilgan eksperimental mashg'ulotlar bolalarda emotsiyal holat, mavjud aggressiya darjasini, uning yo'nalgaligi va intensivligining namoyon etilishi dinamikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini namoyon qildi. Mashg'ulotlar yakunida bolalar hatti-harakatlarida o'zini boshqarishning yengillashganligi, jadal va o'yamasdan harakat qilishdan saqlanishga intilish paydo bo'lidi, bularning barchasi bolalarda ijobiy sifatlar, ijtimoiylashuv shakllanishi dinamikasining o'sganligini ko'rsatdi.

Yakunlovchi eksperiment natijalariga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarda o'zi va tengdoshlarining hissiy holati borasidagi tasavvurlari ma'lum darajada o'sdi. Jumladan, bolalar o'rtasida bir-birini tushunish, bir-birini qo'llab-quvvatlash, bag'rikenglikni namoyon etish xislatlarining kuchayganligi kuzatildi.

Aniqlanishicha, bolalar muloqotda verbal va noverbal vositalardan foydalanadi, biroq, ularda muloqotning mazmunli va texnologik jihatni ancha pastligi ma'lum bo'ldi. Shunga asosan, bolalar bilan muloqotda uning mazmuniga e'tibor qaratish bo'yicha ishlar olib borildi. Mashg'ulotlar yakunida sinaluvchilarning ko'rsatkichlari quyidagicha bo'lди (1-jadvalga qaralsin).

1-jadval. Xavotirlanish darajasining (emotsional negativ tanlashlar) namoyon etilishi dimamikasi qiyosiy ko'rsatkichlari (R.Temml, M.Dorki va V.Amenning "Xavotirlanishni o'rganish" testi asosida: eksperimental guruh).

Respondentlar	Mezonlar			Jami
	Yuqori xavotirlanish darjası (50%dan yuqori)	O'rta xavotirlanish darjası (20 dan 50% gacha)	Past xavotirlanish darjası (0 dan 20%gacha)	
Aniqlovchi eksperiment natijalari				
n-102	42	32	28	102
%	41,2	31,4	27,4	100
Yakunlovchi eksperiment natijalari				
n-102	10	31	61	102
%	9,8	30,3	59,9	100
Farqi	-31,4	-1,1	+32,5	

Yakunlovchi eksperimentlar natijalarini qiyosiy tahlil qilganimizda "Yuqori xavotirlanish darajasi" mezoni aniqlovchi eksperimentda 41,2%, yakunlovchi eksperimentda 9,8%, "O'rta xavotirlanish darajasi" mezoni bo'yicha aniqlovchi eksperimentda 31,4%, yakunlovchi eksperimentda 30,3%, "Past xavotirlanish darajasi" mezoni bo'yicha aniqlovchi eksperimentda 27,4%, yakunlovchi eksperimentda esa 59,9% ijobiy o'sish dinamikasi kuzatildi.

Barcha mezonlar orqali erishilgan diagnostik natijalarni umumlashtirish va qiyosiy tahlil qilish orqali ma'lum psixologik-pedagogik xulosalarga keldik. Dastlabki aniqlovchi tadqiqotda Emotsionallik ("Hissiy rivojlanish"), O'zini-o'zi anglash ("Men-konsepsiya") va Empatiya ("Ijtimoiylashuv") mezonlari orqali erishilgan natijalar ularning barcha mezonlar bo'yicha deyarli bir xil namoyon bo'lganligini ko'rsatdi.

Jumladan, dastlabki eksperimentda "Emotsionallik" bo'yicha ijobiy natijalar 35,4% bo'lgan bo'lsa, "O'zini-o'zi anglash" mezoni bo'yicha natijalar 33,8%ni tashkil etdi. Ushbu uch mezon orasida eng past ko'rsatkich 28,6% bo'lib, bu "Empatiya" bo'yicha namoyon bo'ldi.

Yakunlovchi eksperimental natijalarga qaraganda, "Emotsionallik" bo'yicha ijobiy natijalar 67,7% bo'lib, o'sish dinamikasi 32,3%ni, "O'zini-o'zi anglash" mezoni bo'yicha natijalar 66,7% bo'lib o'sish dinamikasi 32,9%ni, "Empatiya" mezoni bo'yicha ko'rsatkichlar 59,9% bo'lib, o'sish dinamikasi 31,3%ni tashkil etdi. Har uch mezon bo'yicha dastlabki umumiyl o'rtacha natijalar 32,6%ni tashkil etgan bo'lsa, mashg'ulotlar yakunida tajriba guruhlari natijasi 64,4%ga ko'tarildi va o'sish dinamikasi 32,2%ni tashkil etdi. (2-jadvalga qaralsin).

2-jadval. Aniqlovchi va tadqiqot yakunida amalga oshirilgan eksperimentlar natijalari.

Nº	Mezonlar	Dastlabki eksperimental natijalar	Yakunlovchi eksperimental natijalar	O'sish dinamika-si
1.	Emotsionallik ("Hissiy rivojlanish")	35,4	67,7	32,3
2.	O'zini-o'zi anglash ("Men-konsepsiya")	33,8	66,7	32,9
3.	Empatiya ("Ijtimoiylashuv")	28,6	59,9	31,3
O'rtacha (umumiy)		32,6	64,4	32,2

Tajriba guruhidagi mazkur ijobiy ko'rsatkichlarga muktabgacha yoshdagagi bolalar bilan hissiy rivojlanish bo'yicha olib borilgan maxsus mashg'ulotlarda quyidagi metodik jihatlarga asosiy e'tibor qaratilishi natijasida erishdik. Bular:

- mashg'ulotlarning ijtimoiy-hissiy rivojlantirish bo'yicha maxsus metodika asosida tashkil etilganligi;
- uyda va muktabgacha ta'lim tashkilotida amalga oshiradigan barcha faoliyatlarida bolalar o'zlarining quvonch, ma'yuslik, hayrat, aybdorlik kabi emotsiyalarini to'g'ri ko'rsata olishiga, shu bilan bir qatorda boshqa bolalarning ham emotsiyalarini to'g'ri baholashlariga alohida e'tibor qaratilganligi;
- muktabgacha yoshdagagi bolalarda barcha faoliyatlar asosan rolli va syujetli o'yinlar vositasida ijtimoiy-hissiy rivojlantirish borasida tadbirlar bajarilganligi;
- shuningdek, bolalarning televizor, kompyuter, internet va mobil aloqa vositalari olamiga qiziqib, kirishib ketishi natijasida kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti ma'lum darajada cheklanishining oldini olishga alohida harakat qildik.

Tadqiqot yakunida bolalarning emotsiyonal sohasi, emotsiyalarni namoyon etish malakalari va emotsiyalar bilan bog'liq hatti-harakat shakllarini rivojlantirish boladagi tug'ma imkoniyatlar va individual tajribaga bog'liqligi ma'lum bo'ldi. Bolaning atrofidagilar bilan o'zaro harakatlari va munosabatlarini tashkil etishi muvaffaqiyati, ya'ni, ijtimoiy xulq-atvori darajasi esa u o'zida tez-tez his etadigan va namoyon qiladigan emotsiyalarga bog'liq ekanligi aniqlandi.

Xulosa va takliflar

1) Hissiyotlarning tashqi namoyon bo'lishi kattalarga misbatan bolalarda shiddatli va erkin bo'lmagan karakter kasb etadi. Bolada hissiyotlar tez va yorqin avj oladi va shu tarzda juda tez so'nadi. Shu bois, bolalarga mashg'ulotlar jarayonida o'zini-o'zi boshqarish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga ko'proq e'tibor qaratish lozim.

2) Emotsional harakatchanlik – bolalardagi muhim xususiyat bo'lib, ularning kayfiyati ijobiyidan salbiyga tez-tez va asossiz tarzda o'tib tursa, bu ortiqcha emotsiyonal o'zgaruvechanlik, beqarorlik tarzida baholanishi lozim. Shu bois, mashg'ulotlar jarayonida bolalarda emotsiyonal fon namoyon etilishiga diqqatni qaratish zarur, chunki, bu bolaning emotsiyonal farovonligi borasida ma'lumet beradi.

3) Muktabgacha yoshdagagi bolalar bilan tashkil etiladigan turli faoliyatlar, syujetli-rolli o'yinlardan tashqari, taklif etilayotgan maxsus metodika asosida mashg'ulotlarni amalga oshirish orqali ular o'z

hissiyotlarini, harakatlarini to'g'ri boshqaradilar, o'zlari, yaqinlari, tengdoshlari, oilasi va jamiyat a'zolari bilan munosabatga kirishish ko'nikmalarini yanada chuquqroq o'zlashtiradilar.

Foydalaniłgan adabiyotlar ro'yxati

1. Берданиева Г.А. Мактабгача таълим мұассасалари нутқ үстириш машгулоптларыда болаларни мұстакил фикрлашыңа үргатиши методикасінің тәкомиллаштырыш. Тошкент, 2019. - 7 б.
2. Сергиенко, Е.А. Социально-эмоциональное развитие детей. Теоретические основы / Е.А.Сергиенко, Т.Д.Марцинковская, Е.И.Изотова и др. — М. Дрофа, 2019. — 248 с. : ил. — (Российский учебник). ISBN 978-5-358-23199-3
3. Түйчиева И.И. Мактабгача таълим ташкилотларыда тайёрлов гурӯҳи болаларининг фикрлаш фаоллигини ривожлантириш". PhD дисс. Т.: 2020. –Б.14.
4. Розова И.Н. "Эмоциональное развитие детей 5 - 7 лет в дошкольном образовательном учреждении посредством художественной импровизации". Автореферат дисс. канд. пед. наук. Череповец, 2015. –С.19.
5. Бердиева М.М. Мактабгача таълим ташкилотлари тарбияланувчиларини педагогик күннелік-куватлаш ассоциация интеллектуал имкониятларини ривожлантириш". Дисс. PhD. Тошкент, 2020. –Б.13.
6. Абдурахимова Да.А. Халқ оғзаки исходи намұналары воспитасыда мактабгача катта ёшдаги болаларни мәтінавий-ақлоқий тарбиялаш тизимини тәкомиллаштырыш. Дисс. PhD. Тошкент, 2019. –Б.59.
7. Ананьев Б.Г. Избранные труды по психологии. Том 2. Развитие и воспитание личности. Под ред. Логиновой Н.А. Отв. ред. и сост. Коростылева Л.А., Никифоров Г.С. — СПб.: Изд-во С.-Петербург. ун-та, 2007. - 549 с. (-С.101).
8. Альзамова М.Н. Мактабга тайёрлов гурӯҳлари тарбияланувчиларыда дүстона мұносабатларга ассоланған ҳамкорлық күннекмеларини шакллантириш тизимини тәкомиллаштырыш. Дисс. PhD. Тошкент, 2020. –Б.30.
9. Кольшанский Г.В. Соотношение субъективных и объективных факторов в языке // Серия «Лингвистическое наследие XX века». – М.: Изд-во URSS, 2018. - 232 с. (-С.42).
10. Гиноян Р.В., Хомутов А.Е. Физиология эмоций. Нижний Новгород: Изд-во Нижегородского госуниверситета. 2010. - 66 с. –С.6.